

**FARG‘ONA VODIYSI AN‘ANAVIY XONANDALIK IJROCHILIK
NA‘MUNALARIDAN UMUMTA‘LIM MAKTABLARI MUSIQA DARSLARIDA
FOYDALANISH**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗЦОВ ИСПОЛНЕНИЯ ТРАДИЦИОННОГО
ПЕНИЯ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ НА УРОКАХ МУЗЫКИ В
СРЕДНИХ ШКОЛАХ**

**USE OF PERFORMANCE SAMPLES OF TRADITIONAL SINGING OF
FERGANA VALLEY IN MUSIC LESSONS OF SECONDARY
SCHOOLS**

Otabaev Elmurod Dilmurodjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi an‘anaviy xonandalik san‘ati vakillarining respublika musiqa san‘ati rivojida tutgan o‘rni va musiqa madaniyati darslarida repertuarlarini o‘qitishning ahamiyati ilmiy asosda tahlil etilgan.*

Kalit so‘z va iboralar: *An‘anaviy xonandalik, ilmiy maktab, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, qo‘shiqchilik uslublariurf-odatlar, an‘ana, qadriyat, an‘anaviy ashula, ijro uslublari, ovoz, savtxon, nasrxon, zikir, jahrchi, go‘yandachi, aytimchi.*

Аннотация: *В данной статье на научной основе анализируется роль представителей традиционного певческого искусства Ферганской долины в развитии музыкального искусства республики и значение преподавания их репертуара на занятиях музыкальной культуры.*

Ключевые слова и фразы: *Традиционное пение, научная школа, статусные дороги Фергана-Ташкент, стили и обычаи пения, традиция, ценности, традиционное пение, стили исполнения, голос, савхан, Рассказчик, зикир, поэт, имитатор, рассказчик.*

Abstract: *In this article, the role of representatives of the traditional singing art of the Fergana Valley in the development of the republic's musical art and the importance of teaching their repertoires in music culture classes are analyzed on a scientific basis.*

Key words and phrases: *Traditional singing, scientific school, Fergana-Tashkent status roads, singing styles and customs, tradition, value, traditional singing, performance styles, voice, savkhan, Narrator, zikir, poet, impersonator, teller*

O‘zbek musiqa san‘ati tarixi ijrochiligida xonandalik san‘ati ustozdan -shogirdga an‘ana asosida o‘tib, shaklanib, rivojlanib, turli sharoitlarga moslashgan holda bizgacha yetib kelmoqda. Xalq ijodiyotidagi folklor aytimlari, og‘zaki an‘anadagi kasbiy musiqa -maqomlar, akademik vokal va zamonaviy musiqa ijodiyotida o‘zida milliy xususiyatlarni to‘la namoyon eta olgan san‘at turi sifatida an‘anaviy xonandalik asosiy o‘rinda turadi.

Yuqorida tilga olinayotgan har bir yo‘nalish o‘zining shakl va ijrochilik nuqtai nazaridan o‘z uslubi, qonun-qoidalari va shakl-u shamoillariga egaligi xususida musiqashunos olim S.Bekmatov o‘z tadqiqotlarida keltirib o‘tgan. Ular orasida tarixiy tajribalar asosida shakllangan va eng mukammal an‘analarni o‘zida mujassam etgan an‘anaviy xonandalik yo‘nalishi o‘zining ijrochilik uslubi, shakli, ijro yo‘li, aytimning murakkabligi va xalqchilligi bilan a‘lohida ahamiyatga ega. Mazkur yo‘nalish azal-azaldan, o‘zbek xalqining eng go‘zal urf-odatlari, an‘ana, qadriyat va milliy ruhiyatini yuzaga chiqarib, xalqimizning boy ma‘naviyatini dunyo xalqlari oldida aslligi va o‘ziga xosligini ko‘rsatib kelmoqda. Shu bois ham xonandalik an‘anasi va uning aytim yo‘nalishlari, uslublari shakllanib, rivojlanib kelmoqda. An‘anaviy ashula ijrochiligi san‘ati aholi orasida keng ommalashdi. Ayniqsa, ularning xonandalik janri jihatidan keng qamrovligi, ijro uslublarning kengligi, joy va makon an‘analarining o‘ziga xos mahalliy uslublari namoyon bo‘lishi bilan ahamiyatlidir. Darhaqiqat, natijada mahalliy unsurlar bilan xarakterlanuvchi ijro uslublari, keyinchalik esa ijro maktablari yuzaga keldi. Andijon, Xorazm, Marg‘ilon, Qo‘qon Hofizlik maktablari yoki Ota Jalol Nazirov, Xamroqul Qori, Usta shodi Azizov, Xojixon Boltaev, Madraxim sheroziy (Yoqubov), Mamadbuva Sattrov, Rasulqori Mamadaliyev, Murodjon Axmedov, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Mamatbuva Sattorov, Juraxon Sultonov, Ma‘murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Fattohxon Mamadaliyev, Kommuna Ismoilova, Nazira Axmedova, Saodat Qobulova, Berta Dovudova, Faxriddin Umarov, Otajon Xudoysheurov, Tavakkal Qodirov, Xayrulla Lutfullayev, Kamodiddin Raximov, Sherali Jo‘raev, Ortiq Otajonov, Maxmudjon Tojiboev, Munjoat Yo‘lchieva va boshqa qator yuzlab xonandalarning ijro yo‘llari yuzaga keldi.

Xonandalik amaliyotining zahirida mavjud bo‘lgan ana shu o‘ziga xos bosqichlar, tom ma‘noda o‘ziga xos darajalarni yuzaga keltirganki, ular xalq orasida qo‘shiqchi, laparchi, yallachi, doston, termachi, ashulachi, talqinchi, savtxon, nasrxon, zikir, jahrchi, go‘yandachi, aytimchi, xonanda va nihoyat hofiz kabi nomlar bilan atalishga olib kelingan. Bular esa o‘z o‘rnida xonandalik san‘atining turlari sifatida amaliyotda shakllangan. Ijrochilarning har biri har tomonlama mukammal xisoblanib, eng yuqori darajasigacha erishishga muvassar bo‘lganini esa “hofiz” deb yuritish an‘anaga aylangan. Chunonchi, hofiz keng qamrovli hamda ijrochilik mahoratining yuqori bosqichiga erishgan xonandaning o‘z sohasi bo‘yicha mutaxassis darajasi berilgan atamadir. O‘zbek musiqasining ohanglari, eng muhimi, ruhiyati, ayniqsa hofizlikda o‘z aksini topgan. Xonandalikda yuqori saviyaga erishib mumtozlik kasb etganlarni, Ya‘ni mumtoz musiqqa namunalarini ijro etuvchi aytim sohiblarini “ashulachi”, “maqomchi” nomlari bilan birga, XIX asrning 30-yillaridan boshlab “hofiz” deb atash tilimizda allaqachon rasm bo‘lib ulgurdi. [1.]

Yuqorida keltirilgan har bir atamada musiqiy janr xususiyati to‘la ifodasini topadigan bo‘lsa, “hofiz” ham bu o‘rinda qator tarkibiy xususiyatlari bilan bog‘liq holda o‘zining ayrim jihatlarni namoyon etgan. “Hofiz” - arabcha “xifz” so‘zidan olingan bo‘lib, aslida “asrovchi”, “yodda saqlovchi” ma‘nolarini anglatadi. Shu bois bo‘lsa kerak o‘tmishda, ijro talqini bilan bog‘lik kasb egalari hamda amallarida xifz, ya‘ni esda saqlash muhim hisoblangan va talqin etish jihatlarni o‘zida mujassam etganlari bu nom bilan atalib

kelingan. XX asrning 30-yillariga kelib mumtoz musiqa merosi va xalq yo‘llariga mansub yirik shakldagi ashulalar ijrochilari - mohir xonanda va mashhur ashulachilarni hofiz deb yuritish rasman keng ommalashdi. Xukumat tomonidan ham 1939-yili “Xalq hofizi” deb nomlangan faxriy unvon ta’sis etildi. Unga birinchilar qatorida mashhur xonandalar Jo‘raxon Sultonov, Ma ‘murjon Uzoqov va Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayevlar sazovor bo‘ldilar. Azal-azaldan hayotning turli tarmoqlarida muayyan shart -sharoitlar, voqe‘lik, ma‘naviy ehtiyojlar bilan bog‘liq marosim, tadbir va amallar rang-barang ko‘rinishlarda tarkib topgan. Avlodlarning asrlar osha u yoki bu tadbirga amal qilib kelishlari jarayonida ularga bo‘lgan ehtiyoj uzilib qolmaslik, marosimlarni sharoit taqozo etgan vaqtda o‘tkazib turish va muntazam davom ettirish asta-sekin rasm bo‘lib kelgan. O‘zbek xalqi musiqa ijodiyotida xonandalikning bir qator o‘ziga xos ijrochilik uslublari yaratilgan. shunday uslublardan biri bu - maxsus tayyorgarliksiz, o‘z ijro imkoniyatlarlaridan kelib, bir zumda yaratilgan ashulani to‘satdan kuylanishi aholi orasida badixago‘ylik deb yuritilgan. Musiqashunoslik ilmida badixago‘ylik - maxsus tayyorgarliksiz bir zumda yaratilgan she‘r (musiqa yoki qo‘shiq) yoki voqea, xodisa munosabati bilan to‘satdan aytilgan musiqiy asarga aytilgan. Musiqa ijodiyotida maxsus badixago‘ylikka asoslangan aytishuv, terma, lapar kabi janrlar katta ashula va baxshilar san‘atiga xos bo‘lgan namunalar mavjud. An‘anaviy xonandalik ijrochiligida ashula namunalari o‘ziga xos badixago‘ylik tarzida shakllangan. Xonanda ijro etilayotgan asarni o‘zining barcha imkoniyatlarini ishga solgan holda o‘ziga xos tarzida ijro etib kelgan.

An‘anaviy xonandalikda musiqa asarini yuksak saviyada tinglovchilarga yetib kelishida ovoz – tovush asosiy o‘rinda turadi. O‘zbek musiqashunosligida tovush haqida gap borganda tovushni zoxiriy ko‘rinish sifatida talqin etiladi. Unga turli vosita, harakatlar bilan erishish mumkin. Tovushlarning ma‘lum balandlikka ega bo‘lganliklari esa musiqiy tovush hisoblanadi. Musiqiy tovushlarni ma‘noli, his-tuyg‘ular orqali mukammal tarannum etishga eng avvalo inson ovozi qodir. Xonanda ovozida tovush kuchi, balandligi, qattiqligi va barchasini uyg‘unligida hosil bo‘ladigan tembri mavjud. O‘zbek an‘anaviy xonandalik san‘atida shu bilan birga o‘z ko‘rinishiga ega bo‘lmagan, biroq, doimo his etilib, anglanadigan ovozning o‘ziga xos tarovati, mungi, dardi, bezagi, xirgoyisi mavjud bo‘lib, ushbu xonishlar to‘laqonli ma‘noga ega bo‘lgan ovozni tashkil etadi. Xuddi ana shu an‘anaviy xonandalik amaliyotida aynan mana shu jihatlar ijroning extirosli xususiyatlari sifatida ijobiy baholanilib kelingan. Xonandalikning boshqa turlari singari an‘anaviy xonandalikda ham inson ovozining barcha ichki va tashqi xususiyatlaridan keng foydalangan holda tinglovchi qalbiga ta ‘sir eta olish asosiy xonandaning asosiy vazifasi sanaladi. Avvalambor har bir xonanda o‘zining zohir nafas imkoniyatiga ega bo‘lishi, o‘zining shirali ovozi, asar matnini to‘liq va ravon bayon eta olishi, unli va undosh harflarning cho‘zimiga to‘liq e‘tibor berishi orqali tinglovchilarga ruhiy ozuqa olishlarida o‘zining ta ‘sirini ko‘rsatishi lozim.

An‘anaviy qo‘shiq ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o‘lkamizda bu muqaddas san‘atning butun bir ijrochi avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo‘lamiz. Ota Jalol, Ota G‘iyos, Hoji Abdulaziz Abdurasulov,

Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Sodirxon hofiz Bobosharipov, Zohidxon xofiz, Madali hofiz, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Matyoqub Xarratov singari zabardast hofizlar shular jumlasidandir. O‘tmishda nota yozuvi rivojlanmagan bo‘lib, Ovro‘pa musiqa terminlari o‘rnida hofizlarimiz «voz maromiga "Gulligi", "Binnigi", "Shikami", "Xonaqo‘y" deb atalmish nafas olish va ijro yo‘llaridan foydalanishgan. O‘sha davr hofizlarining ovozlari o‘ktam va baquvvat bo‘lganligi uchun ular ko‘proq "Shikami" yo‘lida ijro etganlar. Bu yo‘lda ijro etish g‘oyatda murakkab bo‘lib, shinavandalar tomonidan juda qadrlangan.[5]

Chunki hofiz tovushni ichkaridan tejamkorlik bilan qorin bo‘shlig‘idan chiqarib qo‘shiq aytadi. Shuning uchun ham "Shikami" yo‘li chuqur nafas olishga asoslanishi, tiniqligi hamda jarangdorligi bilan "Gulligi", "Binnigi" kabi ashula yo‘llaridan farq qiladi. Ustoz hofizlar o‘z ijrochilik mahoratlarini oshirish uchun aks sado beruvchi maxsus gumbazli binolarda mashg‘ulot o‘tkazganar, shu tariqa ovozlari sayqal berishgan. "Shikami" yo‘lidan tashqari farq qiluvchi ikkinchi "Xonaqohiy" yo‘li bo‘lib, unda hofiz qo‘shiqlarini aniq talaffuz etib, tinglovchiga g‘azal mazmunini ifodali qilib yetkazgan. Ustoz hofizlarimiz dasturlaridan harxil marosimlarda ijro etiladigan qo‘shiqlar ham o‘rin olgan. Masalan, Sodirxon hofiz motam marosimlarida kuylanadigan qo‘shiqlarni sozsiz, ikki kaftini qulog‘iga qo‘ygani holda, alamli "Yakka faryod" tarzida "Xo‘jandiy" yo‘lida ijro etib kelgan. Jurnalist Sherali Sokinning ma‘lumotlariga qaraganda, Sodirxon hofiz o‘z ashularini yil fasllari va hatto kunning ma‘lum paytlariga ko‘ra tanlab aytgan. Bahor tonglarda "Amin nasrullovi", "Qiyiq", "Qora tong"ni, peshindan keyin "Gulyor shahnoz"ni, kechqurun "Sarparda", "Rok baland", "Dilxiroj" va boshqalarni kuylagan. Bundan tashqari, ustoz hofizlarimiz qo‘shiq ijro etish bilan birga maqomlarni to‘liq o‘zlashtirib, betakror muallif sifatida maqomlarni yangi sho‘balar bilan boyitganlar. Masalan, maqomdon ustoz Ota Jalol Nosirov "Shashmaqom"ning mushkilot qismlarini tartibga solgan, ayrim maqom sho‘balarini kengaytirgan, rivojlantirgan va qo‘shimcha qismlar bastalagan. Jumladan, ulardan biri "Savti Jaloliy" deb ataladi. Marg‘ilonlik Madali hofiz esa "Abdurahmonbegi", "Qalandar", "Tanovar" kabi ijro yo‘llarini yangi talqinlari bilan to‘ldirib, san‘atimiz xazinasini boyitdi. Shu tariqa umrboqiy maqomlarimizga ustoz hofizlarimiz ijrosida qo‘shimcha jilo berilib, yanada to‘ldirilib ijro etib kelinmoqda. [2.]

Hoji Abdulaziz bastalagan "Guluzorim" qo‘shig‘i, Jo‘raxon Sultonov bastalagan va o‘zi ijro etgan Guluzorim qani", "Naylayin" qo‘shiqlari, an‘anaviy merosimiz qatori musiqiy xazinamizdan mustahkam o‘rin oldi. Shu o‘rinda aytish lozimki, musiqiy san‘atimiz rivojiga o‘zbek bastakorlari va sozandalari o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Yunus Rajabiy, To‘xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, Imomjon Ikromov, Saidjon Kalonov, Muhammadjon Mirzaev, Muxtorjon Murtazaev, Faxriddin Sodiqov, Abduhoshim Ismoilov singari ko‘plab bastakorlar yaratgan qo‘shiq va kuylar xalq mulkiga aylanib qoldi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, an‘anaviy qo‘shiqchiligimiz guldastasi navbatdagi avlod qo‘liga o‘tdi. Orif hoji Alimaxsumov, Ochilxon Otaxonov, Orifxon Hotamov, Muhammmadjon Karimov, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Odiljon Yusupov, Fattohxon Mamadaliev, Tavakkal Qodirov, Ro‘zimat Jumaniyozov, Tolibjon Badinov, Quvondiq Iskandarov, Faxriddin Umarov, Eson Lutfullaev, Ne‘matjon

Qulabdullaev, Rahimaxon Mazohidova, Olmaxon Hayitova, Otajon Xudoyshukurov, Bobomurod Hamdamov, Kamoliddin Rahimov, singari ustoz hofizlar shular jumlasidandir.[3.]

Yaxshi qo‘shiq yaratilsa, ko‘ngildagi xofizlar, qo‘shiqchilar ko‘payadi. Dil tortar zamonaviy qo‘shiqlari ham insonga ham dalda beradi, ham tarbiyalaydi. Agar qo‘shiqchilarimiz hoh zamonaviy yo‘nalishda, hoh mumtoz yo‘nalishda ijod qilayotgan vaqt mobaynida o‘ziga xos yo‘llarida ijod qilishsa, og‘ishmasa xalqning ko‘ngliga manzur bo‘laverishadi. Aynan ushbu tushunchalarni musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarga o‘rgatib borish bilan birga milliy ijrochilik san’atining ko‘rgazmalilik uslublarida keng foydalanish zarur. O‘zbekistonda yosh avlodni musiqa-ashula san’ati vositalari orqali tarbiyalash bo‘yicha kattagina muvaffaqiyatlarga erishildi. Ammo mana shu muxim pedagogik jarayonda qator kamchiliklar va hal etilmagan masalalar ham bor. Bizningcha, ular quyidagilardan iborat. Musiqa ta’lim tizimining maqsadi musiqa tarbiya uchun umumiy xarakterga ega bo‘lib, estetik barkamol shaxsni shakllantirishdir. Uning vazifalari: musiqa muxabbat hissini, uni tinglash va idrok etish, musiqiy did hamda ehtiyojlarni, chinakam musiqa boyligi bilan soxta musikasi farqlash iqtidorini shakllantirishdan, musiqa hayotiga ishtiyoq va unga ijodiy yo‘sinda qo‘shilish ko‘nikmasini tarkib toptirishdan, jamiyatimiz axloqiga xos yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalashdan, go‘zallik yaratishga, go‘zallik qonunlari bo‘yicha yashashga va kishilar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishiga havas uyg‘otishdan iboratdir. [4.]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldosheva S.X O‘zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta’limining rivojlanishi. Toshkent: 1994.-B. 88.
2. Ortiqov T. Musiqa o‘qitish metodikasi.-Toshkent: Fan, 2010. –B.23.
3. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi. Toshkent, 1994. –B.74.
4. Hamidov Q. O‘zbek an’anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi.-Toshkent, 1996. – B.51.
5. J.Yu.Hasanboev Pedagogika nazariyasi. Ma’ruza matni. T. 2002 y.